

ONG VA ONGSIZLIK NAZARIYALARINING PSIXOLOGIK TALQINI

Qodirov Obid Safarovich

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti

Psixologiya kafedrasini mudiri, dotsent;

Umirzoqova Halima Akramovna

SamDU Psixologiya yo'nalishi talabasi

Annatsiya: *Maqolada ong va ongsizlik nazariyalarining psixologik talqini o'rganilgan. Ong psixikaning eng yuksak darajasi bo'lib u faqat insongagina xosdir. Ong kishilar munosabatlarining yig'indisidir. Uning yuzaga kelishining asosiy sharti, vositasi tildir. Psixikaning eng quyi darajasi ongsizlikdir. Inson ongi tevarak atrofdagi tashqi olamga doir bilimlar yig'indisidan iboratdir. Ongsizlik bu shunday psixik jarayonlar va hodisalar yig'indisiki, unda inson o'z xatti-harakatlariga javob bermaydi, anglamaydi. Bunga tush ko'rish, ba'zi patologik hodisalar, alaxlash, gallyusinasiya kabilar kiradi.*

Kalit so'zlar; *ong, ongsizlik nazariyalari, Zigmund Freyd, ongning xossalari, hayvon instinktlari va refleklari.*

Аннотация: *Сознание является высшим уровнем психики и уникально для человека. Сознание – это сумма человеческих отношений. Главным условием его возникновения, инструментом является язык. Самый низший уровень психики – бессознательное. Разум человека состоит из совокупности знаний об окружающем внешнем мире. Бессознательное – совокупность таких психических процессов и событий, на которые человек не реагирует, не понимает. Сюда относятся сновидения, некоторые патологические явления, рассеянность, галлюцинации.*

Ключевые слова; *сознание, теории бессознательного, Зигмунд Фрейд, свойства сознания, животные инстинкты и рефлекссы.*

Annotation: *Consciousness is the highest level of the psyche and is unique to humans. Consciousness is the sum of human relationships. The main condition for its occurrence, the tool is language. The lowest level of the psyche is the unconscious. The human mind consists of a collection of knowledge about the surrounding external world. Unconsciousness is a collection of such mental processes and events that a person does not respond to his actions, does not understand. This includes dreaming, some pathological phenomena, distraction, hallucinations.*

Key words; *consciousness, theories of unconsciousness, Sigmund Freud, properties of consciousness, animal instincts and reflexes.*

Inson tafakkuri juda ham kuchli, ammo ko'pchilik shaxslarda psixologiyaga oid malaka va ko'nikmalarning yetishmasligi tufayli bu tushunchalarni noto'g'ri idrok qilishadi. Chunki ko'pchilik insonlardan so'ralganida ongni aql zakovat va tafakkur bilan adashtirishlariga guvohi bo'lamiz. Ko'pchilik shaxslarga ong hayvonlarda ham mavjud deb o'ylaysizmi? kabi savol bilan murojaat qilganimizda ulardan Ha! degan javobni olishimiz mumkin. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki haligacha ko'pchilikda ong va ongsizlik tushunchalari haqida aniq qarashlar yo'q. Aslida onglilik faqatgina insonga xos xususiyat bo'lib inson zotini hayvondan farqlovchi tushuncha hamdir. Inson hayotining turli davrlarida yashar ekan uning ongi turli xil ta'sirlar ostida rivojlanib boradi. Insonlar ongligi tufayli yangiliklar yaratadi, atrof muhitni idrok qiladi, tushunadi, tafakkur qiladi va hayotga maqsadlar orqali qaraydi. Ong orqali insonda turli xil bilish jarayonlari amalga oshadi, u tufali shaxslararo ijtimoiy va siyosiy munosabatlar bunyodga keladi.

Ong - psixikaning eng yuksak darajasi bo'lib u faqat insongagina xosdir. Ong ijtimoiy tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyatining tarkib topishida til yordamida boshqa kishilar bilan doimiy munosabatda bo'lish natijasidir. Bu ma'noda ong mutafakkirlar ta'kidlab o'tganlaridek, ijtimoiy mahsulotdir.

Ongning birinchi xossasi - bu anglash demakdir. Inson ongi tevarak atrofdagi tashqi olamga doir bilimlar yig'indisidan iboratdir. Anglash tashqi olamdagi narsalarni tushunish bo'lib, uning tarkibiga muhim bilish jarayonlari kiradi.

Ongning ikkinchi xossasiga binoan, ongda ob'ekt bilan sub'ekt o'rtasidagi aniq farq o'z ifodasini topadi, ya'ni odam "men" degan tushunchani "men emas" tushunchasidan farqini ajratadi. Odam o'zini bilish qobiliyatiga ega bo'lgan, ya'ni psixik faoliyatda o'z-o'zini tekshira oladigan yagona mavjudotdir.

Ongning uchinchi xossasiga asosan ong yordami bilan odamning maqsadni ko'zlash faoliyati ta'minlanadi. Faoliyat maqsadlarini yaratish ongning vazifasiga kiradi. Bunday faoliyat motivlari yuzaga keladi va chamalab ko'riladi, irodaviy qarorlar qabul qilinadi, harakatlarni bajarish yo'llari hisobga olinadi.

Ongning to'rtinchi xossasiga asosan turli munosabatlardan ongli ravishda turli his-tuyg'ular yuzaga keladi. Ong kishilar munosabatlarining yig'indisidir.

Ong yuzaga kelishining asosiy sharti, vositasi tildir. Psixikaning eng quyi darajasi ongsizlikdir. Ongsizlik bu shunday psixik jarayonlar va hodisalar yig'indisiki, unda inson o'z xatti-harakatlariga javob bermaydi, anglamaydi. Bunga tush ko'rish, ba'zi patologik hodisalar, alaxlash, gallyusinasiya kabilar kiradi.

Insonlardagi, hayvonlarda ham ong mavjud degan fikrlar ham ilgari surilishi bu juda katta xatodir! Inson ongli ravishta qiladigan ishlarni hayvonlar ham ongli ravishta bajara oladi deganlar qattiq yanglishadilar! Biz hayvon haratlarini instinkt

yoki reflekslar orqali amalga oshadi desak to'g'riroq bo'ladi chamamda, negaki ularda mustaqil qaror qilish singari xususiyatlarning o'zi yo'q! Hayvonlarning qilayotgan ishlari shartsiz ta'sirlovchilar orqali shakillatirilgan shartsiz reflekslar orqali amalga oshiriladi. Instinkt (lot. instinctus – uyg'onish, qo'zg'alish) – muayyan sharoitda hayvonlarning bitta turi uchun xos bo'lgan murakkab irsiy xattiharakatlari majmui. Reflekslar – organizmning markaziy nerv sistemasi orqali ichki yoki tashqi muhit omillari ta'siridan retseptorlar qo'zg'alishiga javob reaksiyasi. Reflekslar shartli va shartsiz turlarga bo'linadi.

Insonlar qadim zamonlardan buyon ong va ongsizlik, inson tafakkuri va uning kelib chiqishi to'g'risida juda ko'plab izlanishlar olib borishganiga guvohmiz. Bu izlanishlar hozirgi kunda ham o'z yechimini topganicha yo'q. Insonlar har bir davrda turlicha qarashlarga ega bo'lishgan. Ongsizlikni dastlab diniy va mifologik qarashlar doirasida tushuntirishga urunishgan. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak XIX asr o'rtalarida faoliyat olib borgan olimlaridan Zigmund Freyd va uning shogirdlari ong tushunchasi haqida o'z nazariyalarini yaratganlar. Ularning fikricha ong - psixik faoliyatning oliy shakli bo'lib faqatgina insonga hos omildir. Ong moddiy olamni inson miyasida aks etishi va uning faoliyati asosi deb hisoblashgan. Asosan ong tushunchasiga kengroq qaralayotgan o'sha vaqtda Zigmund Freyd o'zning "ongsizlik" tushunchasini fanga kiritadi va shu tushuncha asosida yaratilgan farazlarini ommaga taqdim eta boshlaydi. Zigmund Freyd o'z davrining yetuk shifokorlaridan bo'lgan va uzoq muddatli ish jarayoni mobaynida insonlardagi nervrologik kasalliklar asosan shol va nutqida muamosi bo'lgan bolalarni tashxislash usullarini o'rganganligi bois bevosita ong muamolari bilan ishlay boshlagan.

O'qiganlarim natijasida shuni angladimki Freydning seksuallik haqidagi fikrlari ongni qandaydir ongsiz jarayonlar boshqaradi, - degan qarashlari mutloqo xato o'ylangandir. Biz ongli jonzotlarmiz va o'z tanamiz, kechinmalarimizni nerv fiziologik asoslari orqali ongli ravishta boshqara olish qobiliyatiga egamiz. Freydni boshqa bir fikri yani tushlar va ongsizlik nazariyalari haqida bergan tushunchalari hali ham o'z isbotini topganicha yo'q ammo ba'zi qarashlar e'tiborga molik deb o'ylayman. Xususan "tushlar oddiy hodisa emas ular bostirilgan fikrlar va xayollarni ong ostidan g'ayrishuriy tarzda namoyon bo'lishidir" va "nutqdagi kamchiliklar, yanglish idrok qilish, bir so'zni ikkinchisi bilan adashtirish kabi hodisalar barchasi ongsizlikda saqlanib qolgan oshkor etilmagan, bostirilgan fikrlar va xayollar tufayli sodir bo'lishidir" kabi fikrlarini o'rganishda davom etsak arziydi. Odatda barcha insonlar tush ko'rishadi, mening fikrimcha ham tushdagi voqeyliklar hayotimizda sodir bo'lgan yoki fikr yuritilgan hodisalar, jarayonlarga, biz e'tibordan chetda qoldirgan va anglanmagan, ammo ongsizligimizda qolib

ketgan hotiralar majmuidir. Bizning ongimiz ongsizlikga qaraganda ancha kichik qismni egallaydi, ongsilik esa no'malum kenglikga ega bizdagi ko'plab fizilologik holatlar, kechinmalar ongsiz ravishda sodir bo'ladi. Bunga oddiy misol tariqasida aytadigan bo'lsak har bir harakatimizni biz o'ylab qilmasligimiz, inson har bir qadamini bosish haqida o'ylab keyin bosmaydi, chunki bunday mayda jarayonlar ongsiz ravishda biz o'ylamasakda sodir bo'laveradi, yana ham tushunarliroq bo'lishi uchun aytadigan bo'lsak biz uydan tashqariga chiqish haqida fikr yuritimiz ammo chiqish uchun necha qadam bosish va buning uchun eshikni ochishimiz keraklogi haqida o'ylamaymiz, chiqishimiz kerakmi harakatlarimiz avtomatik tarzda sodir bo'laveradi. Agarda biz har bir mayda harakatlar uchun ongimizni ishlatganimizda edi harakatlarimiz anchayin sust va beqaror bo'lib qolardi chamamda! Ong va ongsizlik juda ham ko'p ochilmagan qirralarga egadir va inson uchun hali hamon yechilishi qiyin, ammo qiziq bo'lgan faktorlar yig'indisi bo'lib qolaveradi.

FOIDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umumiy Psixologiya o'quv fanining ishchi dasturi (1-kurslar uchun) Toshkent -2019
2. 8- sinf Bialogiya (odam va uning salomatligi) Toshkent -2019
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foidalanilgan. Aktov, Abdulla. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. O.S.Qodirov. Umumiy psixologiya // O'quv qo'llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.
5. O.S.Qodirov, Sh.N.Xotamov. Ijtimoiy psixologiya //Darslik. - Samarqand, 2023.-346 b.
6. Safarovich Q. O. et al. O'QUVCHILAR XULQ-ATVORI PROFILAKTIKASIDA MAQSADGA YO'NALTIRILGAN TARBIYAVIY TA'SIR MODELI //PEDAGOG. - 2023. - T. 6. - №. 2. - C. 382-386.
7. Safarovich Q. O. et al. TARBIYASI QIYIN O'QUVCHILARNING XULQ-ATVORI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH MASALALARI //PEDAGOG. - 2023. - T. 6. - №. 2. - C. 367-371.
8. Safarovich Q. O. et al. TEENAGER CHILD PSYCHOLOGY //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. - 2022. - T. 10. - №. 5. - C. 454-462.